



YOSH ILMIY TADQIQOTCHI

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MAQOLALAR TO'PLAMI

2025-yil 12-13-mart

BUXORO DAVLAT UNIVER



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

“YOSH ILMIY TADQIQOTCHI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Buxoro shahri, 2025-yil 12-13-mart

BUXARA -2025
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,
Baxtim shul - o'zbekning Zulfiyasiman[7;127]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. Ikki chashma(Hamid Olimjon va Zulfiya). – *Манба: www.zulfiyaxonim.uz сайтудан* – 13 b
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Navoiy universiteti, 2018 – 475 b
3. Safarov X. Jamiyatga manfaatdor bo'lish. Naim Karimovning baxt formulasi maqola, 2023. – 8 b
4. Umarova N. Hayotni kuylayman, chekinar alam... maqola. – Toshkent: Til va adabiyot ta'limi jurnali, 2016 2-son – 81 b
5. Umirova A. Baxtim shul o'zbekning Zulfiyasiman! maqola. – Toshkent: Til va adabiyot ta'limi jurnali, 2019. 3-son – 49 b
6. Zulfiya. Saylanma. –Toshkent: Sharq. Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent: 2016 – 226 b
7. Зулфия .Тонг билан шом аро. Сайланма .Тошкент : ШАРҚ,2006 – 168 б
8. G'afurov I. Zulfiya siymosi. www.kh-davron.uz 2014 – 9 b

XORIJIY TIL - NEMIS TILI DARSLARIDA LEKSIKANI O'RGATISH

Babayev Maxmud Tashpulatovich

Buxoro davlat universiteti

"Nemis filologiyasi" kafedrası o'qituvchisi

email: m.t.babaev@buxdu.uz

G'aybulloyev Asilbek Ruxillo o'g'li

Buxoro davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti

11-3GHTF-22 guruhi talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada nemis tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda leksikani o'zlashtirish jarayoni va uning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. A2 darajadagi o'quvchilar uchun so'z boyligini oshirish va leksik bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan ta'lim metodlari, jumladan, faol, passiv va potensial lug'at shakllarini rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, paradigmatic munosabatlarga asoslangan lug'at mashqlari, semantik bog'liqliklar orqali so'z yodlash texnikalari va o'quvchilarning individual o'rganish xususiyatlariga mos yondashuvlar muhokama qilinadi. Chet tili darslarida leksikani kontekst asosida o'rgatish samaradorligi va lingvistik birliklarning kommunikativ ahamiyati yoritiladi.

Kalit soʻzlar: Nemis tili, leksika oʻqitish, A2 daraja, kommunikativ kompetensiya, soʻz boyligi, paradigmatic munosabatlar, semantik bogʻliqlik, kontekstual oʻrganish, chet tili didaktikasi, lingvistik birliklar.

Kirish. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2012 yildagi “Chet tillarni oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-1875-son qarorida “...Qayd etib oʻtilsinki, mamlakatda Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga oʻqitishning kompleks tizimi, yaʼni uygʻun kamol topgan, oʻqimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yoʻnaltirilgan tizim yaratildi”...⁷⁷ deb belgilab oʻtilgan.

Chet tili darslarida leksikani oʻrgatish zarurligini yaxshiroq tushunish uchun har bir oʻquvchi toʻrtta koʻnikmalarni mashq qilishi va rivojlantirishi kerakligini tushunishi muhimdir. Ammo buni tushunishimiz kerakki, bu jarayon leksik va grammatik malakalar ustida ishlamasdan turib, umuman amalga oshmaydi. Aytish mumkinki, tilda soʻz va iboralarni yetkazish chet tilida tushunish va muloqot qilishning asosiy va zaruriy shartidir.

Chet tilini oʻrganishda soʻz boyligi juda muhim rol oʻynashiga shubha yoʻq. Leksika kommunikativ kompetentsiyaning eng muhim tarkibiy qismidir - busiz oʻqish, yozish, gapirish yoki tinglab tushunish mumkin emas. Agar siz chet tilida bir nechta oddiy soʻzlarni bilsangiz, allaqachon boshlangʻich darajada muloqot qila olishingiz mumkin. Buxoro davlat universitetining talabalari universitetda nemis tilini chet tili sifatida oʻrganishmoqda. Bunda ular leksika boyligiga ega boʻladilar. Bundan tashqari, koʻp tilli muhitda leksika bilan oʻrganish bugungi DaF(nemis tili xorijiy til sifatida) darslarining asosidir. Chet tilini oʻrganish leksikani yaxshi bilishni talab qiladi. Chet tili darslarida leksikani oʻrgatish asosiy oʻrinni egallaydi, bunda oʻquvchilar oʻz oʻrganish jarayonida ular bilan doimo shugʻullanishadi. Leksikani oʻrganish katta ahamiyatga ega va koʻp vaqt talab etadi. Oʻquvchilar leksika mashqlari yordamida ishlashga majbur. Bu

⁷⁷ <https://lex.uz/docs/-2126032>

shuni anglatadiki, leksikani yaxshi bilish asosdir. Asosiy maqsad - o‘quvchilar har bir sohada muvaffaqiyatli suhbat qurish yoki ta’lim vaziyatlarni amalga oshirish. O‘qituvchi o‘quvchilar guruhi haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak, shunda leksika ishi bo‘yicha o‘qitish jarayoni muammosiz o‘tadi. So‘z boyligini o‘rgatish bilan bog‘liq eng muhim muammolardan biri chet tili darslarida qo‘llaniladigan so‘zlarni qanday tanlash masalasidir.

Leksikologiya chet tilini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Faqat bir nechta asosiy so‘zlarni bilish orqali ham muloqot qilish mumkin. Yetarli so‘z boyligining yo‘qligi ko‘pincha muloqotdagi tushunmovchiliklarning asosiy sababidir.

Desselmann va Hellmich leksikani til tizimining eng o‘zgaruvchan qismi deb ta’riflaydilar, u jamiyatdagi o‘zgarishlarga bevosita javob beradi. “Bu jarayon natijasida doimiy ravishda yangi ma’nolar, ma’no farqlanishlari, qisqarishlar, siljishlar va kengayishlar paydo bo‘ladi. Bu ta’rifdan kelib chiqib, leksikani o‘rganishning turli muhitlarda qanchalik muhim rol o‘ynashini tushunish mumkin.”⁷⁸ Shuning uchun, chet tilini o‘rgatishda leksikani tizimli va kontekstga asoslangan holda o‘rgatish o‘quvchilarni samarali qo‘llab-quvvatlash uchun muhimdir.

A2 darajasida leksikani o‘rganishning ahamiyati. Til o‘qitish metodisti Rainer Bohn chet tilini o‘rganishda lug‘atni uch turga ajratadi: faol, passiv va potensial lug‘at.

- ✚ **Faol lug‘at:** Bu o‘rganuvchi tomonidan faol ravishda, ya’ni gapirish va yozishda foydalaniladigan so‘z va iboralarni o‘z ichiga oladi.
- ✚ **Passiv lug‘at:** Bu o‘rganuvchi tomonidan ilgari o‘rganilgan, lekin gapirish yoki yozishda faol qo‘llanilmaydigan so‘zlarni o‘z ichiga oladi.
- ✚ **Potensial lug‘at:** Bu o‘rganuvchi uchun yangi va noma’lum bo‘lgan, lekin ularning ma’nosini so‘z yasash qoidalari va asosiy so‘zlarni bilish orqali tushunish mumkin bo‘lgan hosila yoki birikma so‘zlardan iborat. Bu lug‘at

⁷⁸ Storch, Günther (1999): Deutsch als Fremdsprache: eine Didaktik: theoretische Grundlagen und praktische Unterrichtsgestaltung, München: Wilhelm Fink, S.141)

turi o'rganuvchining tinglab tushunish va o'qib tushunish darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Potensial lug'atni tushunish uchun o'rganuvchi asosiy so'zlarni va so'z yasash qoidalarini bilishi muhimdir. Bu bilimlar yordamida u yangi so'zlarning ma'nosini mustaqil ravishda aniqlay oladi, bu esa chet tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.⁷⁹

Tilshunos olimi Christiane Neveling ta'kidlaganidek, lingvistika so'zlarni didaktikada bir yoki bir nechta qismlardan iborat bo'lgan murakkab o'quv obyektlari sifatida qaraydi. Lingvistik birliklar ikki tomonlama saqlash shakliga ega deb hisoblanadi: so'z shakli (fonologik, orfografik va morfosintaktik xususiyatlar) va ma'no (semantik xususiyatlar).⁸⁰

Chet tilida so'z o'rganishda ikkita muhim maqsad mavjud. Bir tomondan, o'rganilgan lug'at uzoq muddat saqlanishi kerak, ikkinchi tomondan esa u tez va aniq esga olinib, nutqda ishlatilishi kerak. Ushbu maqsadlar shundan kelib chiqadiki, lug'at bilimlari yordamchi funktsiyaga ega bo'lib, faqat kommunikatsiya vositasi sifatida ishlatilganda ahamiyat kasb etadi.

Kommunikatsiyaga kelsak, grammatikadan ko'ra to'g'ri va mos lug'at zaxirasiga ega bo'lish ancha muhimroq ekanligi inkor etib bo'lmaydi. Grammatik noaniqlik yoki bilmaslik ikkinchi darajali masala hisoblanadi. To'laqonli muloqot yuzaga kelishi uchun hech bo'lmaganda asosiy lug'at zaxirasiga ega bo'lish lozim.⁸¹

O'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganish jarayonida, ularning chet tilini o'rganishga qobiliyatini aniqlash masalasi ham paydo bo'ladi. Bu qobiliyatlar o'rganish jarayonini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkin. Masalan, o'quvchining o'rganish uslubi (vizual, eshitish, kinestetik) va shaxsiyati

⁷⁹ Bohn, Rainer (1994): Arbeit an lexikalischen Kenntnissen, in: Einführung in die Didaktik des Unterrichts. Deutsch als Fremdsprache mit Videospielen, Band 1. Göppingen: Schneider Verlag Hohengehren, GmbH, S.170-171

⁸⁰ Neveling, Christiane (2016): Verfügen über sprachliche Mittel: Wortschatz, in: Handbuch Fremdsprachenunterricht, Stuttgart: A. Francke Verlag Tübingen, S.117

⁸¹ Storch, Günther (1999): Deutsch als Fremdsprache: eine Didaktik: theoretische Grundlagen und praktische Unterrichtsgestaltung, München: Wilhelm Fink, S.55-56.

(introvert yoki ekstrovert) o'rganish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish muhimdir.⁸²

A2 darajasida o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

1. Kundalik suhbatlarda asosiy so'z va iboralarni ishlatish;
2. Turli kontekstlarda so'zlarning ma'nolarini tushunish;
3. Oddiy matnlarni o'qish va undagi so'zlarni anglash;
4. Shaxsiy tajribalar haqida qisqacha gapira olish.

Misol sifatida, o'quvchilar "Ich kaufe Brot und Milch" (Men non va sut sotib olaman) kabi oddiy gaplarni tushunib, kundalik hayotda ishlata olishi kerak.

Shuningdek, leksika boyligini oshirish o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, "Mein Lieblingsessen ist Pizza" (Mening sevimli taomim pitsa) kabi gaplar orqali shaxsiy fikr bildirishi osonlashadi.

Bundan tashqari bevosita usulda lug'at boyligini taqdim etish uchun gap bog'lanishlaridan foydalaniladi. Lug'at boyligini semantizatsiya qilish – uning ma'nosini tavsiflash va aniqlash orqali amalga oshiriladi, bunda leksik birliklar kontekst orqali tushuntiriladi, ta'riflanadi va izohlanadi. Bu usulda, ayniqsa, til o'rgatishda bir tillilik (faqat o'rganilayotgan tilni ishlatish) va ko'rgazmalilik juda muhim sanaladi.⁸³ Misol tariqasida 1-rasmda ko'rsatilgan.

				1.der Krankenpfleger	7.der Arzt
				2. die Lehrerin	8.der Verkäufer
				3.der Schneider	9.der Feuerwehmann
				4.der Handwerker	10.der

⁸² Düwell, Henning (1995): Der Fremdsprachenlerner, in: Handbuch Fremdsprachenunterricht, Thübingen, A. Francke Verlag, S. 167.

⁸³ Bohn, Rainer (1994): Arbeit an lexikalischen Kenntnissen, in: Einführung in die Didaktik des Unterrichts. Deutsch als Fremdsprache mit Videospielen, Band 1. Göppingen: Schneider Verlag Hohengehren, GmbH, S.179.

Metzger

5.der Polizist 11.der Kellner

6.der Gärtner 12der Geschäftsmann

1-rasmdagi kasblarga oid soʻzlar bilan boʻsh joylarni toʻldiring.

Oʻzbek tilida jinsining kasbga nisbatan ahamiyati yoʻq. Nemis tilida esa grammatik ahamiyatga ega. Bu yerda kasblarning erkak va ayollarga tegishli xususiyatini eslatib oʻtish mumkin boʻladi:

der Lehrer -> die Lehrerin

der Arzt -> die Ärztin

der Krankenpfleger -> die Krankenschwester... ..

Oʻquvchilar kasb nomlarini yodga olganlari hamda yangilari bilan tanishganlaridan soʻng, quyidagi savolni berib mavzuni uning shaxsiy hayoti bilan bogʻlaymiz. Bundan maqsad, oʻquvchi mavzuni oʻz aksida koʻradi va bu bilan oʻrganilgan material xotirada uzoqroq qolishi va doimiy takrorlanishi uchun imkoniyat yaratiladi.⁸⁴ Bundan tashqari paradigmatic munosabatlarga asoslangan mashqlar ham misol boʻla oladi. Ushbu mashqda oʻquvchilar soʻz boyligini tegishli ravishda tasniflashlari kerak. Bunda ular insonlarning obyektga oid xususiyatlarini aniqlaydilar, bu esa berilgan soʻz maydonining semantik birligini taʼminlaydi va individual bogʻlanishlarga imkon yaratadi. Oxirida esa antonimlar koʻrsatiladi, bu orqali sifatlar aniq va aniq tushunilishi lozim.

Der Optimist sagt:

1. *Deutsch ist leicht!*
2. *Ich verstehe viel.*
3. *Ich lerne schnell.*
4. *Ich spreche gut Deutsch.*
5. *Zwei Kilometer? Das ist nah.*
6. *Schnell Deutsch lernen – das ist möglich.*



Der Pessimist sagt:

Deutsch ist



2-rasm. Paradigmatik munosabatlarga asoslangan mashq.⁸⁵

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁸⁴ <https://sultonov.wordpress.com/tag/berufe/>

⁸⁵ Storch, Günther (1999): Deutsch als Fremdsprache: eine Didaktik: theoretische Grundlagen und praktische Unterrichtsgestaltung, München: Wilhelm Fink, S.66.

1. Bohn, Rainer (1994): Arbeit an lexikalischen Kenntnissen, in: Einführung in die Didaktik des Unterrichts. Deutsch als Fremdsprache mit Videospielen, Band 1. Göppingen: Schneider Verlag Hohengehren, GmbH, S.179.
2. Storch, Günther (1999): Deutsch als Fremdsprache: eine Didaktik: theoretische Grundlagen und praktische Unterrichtsgestaltung, München: Wilhelm Fink, S.141)
3. Neveling, Christiane (2016): Verfügen über sprachliche Mittel: Wortschatz, in: Handbuch Fremdsprachenunterricht, Stuttgart: A. Francke Verlag Tübingen, S.117
4. Storch, Günther (1999): Deutsch als Fremdsprache: eine Didaktik: theoretische Grundlagen und praktische Unterrichtsgestaltung, München: Wilhelm Fink, S.55-56.
5. Düwell, Henning (1995): Der Fremdsprachenlerner, in: Handbuch Fremdsprachenunterricht, Thübingen, A. Francke Verlag, S. 167.

Ilovalar:

<https://sultonov.wordpress.com/tag/berufe/>
<https://lex.uz/docs/-2126032>

NEMIS TILI DARSLARIDA IMO-ISHORALARNING QO'LLANILISHI

Babayev Maxmud Tashpulatovich

Buxoro davlat universiteti

"Nemis filologiyasi" kafedrası o'qituvchisi

email: m.t.babaev@buxdu.uz

Mustafayeva Bahtigul Rauf qizi

Buxoro davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti

11-3GHTF-22 guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tana tillari mohiyati, uning barcha sohalar qatori ta'lim sohasida ham alohida o'ringa ega ekanligi va bundan tashqari o'quv jarayonida uning qo'llanilish vazifasi hamda maqsadi va boshqa funksiyalari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Tana tili, muloqot shakli, paralingvistik vositalar, noverbal shakllar, xatt – harakat, distsiplina, tushunishni osonlashtirish, diqqatni jamlash, emotsiya ifodalari, kodlash, dekodlash.

Bugungi kunda ta'lim tizimi jamiyatning rivojlantirish va kelajak avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev “ Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda hal qiluvchi

	<i>Sadriddinovna</i>	<i>xarakter talqini</i>	
83.	<i>Nematova Sarvinoz Qamariddinovna</i>	<i>Zulfiya she'riyatida kun va tun obrazlarining badiiy ifodasi</i>	437
84.	<i>Babayev Maxmud Tashpulatovich G'aybulloyev Asilbek Ruxillo o'g'li</i>	<i>Xorijiy til - nemis tili darslarida leksikani o'rgatish</i>	444
85.	<i>Babayev Maxmud Tashpulatovich Mustafayeva Bahtigul Rauf qizi</i>	<i>Nemis tili darslarida imo-ishoralarning qo'llanilishi</i>	450
86.	<i>Babayev Maxmud Tashpulatovich Murodova Munira Bekdulla qizi</i>	<i>Germaniyadagi talabalar muhiti til aloqalarining ba'zi xususiyatlari haqida</i>	455
87.	<i>Babayev Maxmud Tashpulatovich Ne'matova Sitora O'ktam qizi</i>	<i>O'yin va uning herman hesse ijodidagi in'ikosi</i>	460
88.	<i>Abdullayev Nurbek Alisher o'g'li</i>	<i>Tarjimonlik faoliyatida sun'iy intellektning roli</i>	466
89.	<i>Xalillayev Firdavs Ibadullo o'g'li</i>	<i>Sun'iy intellekt bilan tarjimaning buzilishi</i>	471
90.	<i>Mansurova Feruza Hikmat qizi</i>	<i>“She'riyatda obraz tushunchasi va ko'z obrazining talqini”</i>	476
91.	<i>Hakimova Moxinur Istam qizi</i>	<i>"Munshaot" bir toshbosma nusxasining matni tahlili (asar tarkibidagi 1-maktub misolida)</i>	480
92.	<i>Ahatova Durdona Davron qizi</i>	<i>Omon Muxtor hikoyalarining mavzu ko'lami</i>	486
93.	<i>Хусанбоев Иброхимжон Отабек угли</i>	<i>Повышение мотивации к изучению иностранных языков студентов медицинского направления</i>	490
94.	<i>Badalov Feruz Nuriddinovich</i>	<i>O'zbek va xorijiy tilshunoslikda matn va unga aloqador masalalar tadqiqi</i>	497
95.	<i>Абдурахманова Сарвиноз Орифжон кизи</i>	<i>Феномен языковой интерференции в условиях билингвизма</i>	502
96.	<i>Jurakulova Parizoda Otabek qizi</i>	<i>The importance of cultural awareness and critical thinking in second language learning</i>	507
11-SHO'BA IJTIMOIIY GUMANITAR SOHALAR			512
97.	<i>Durdona Jamolova</i>	<i>Buxoroda gidlik xizmatini rivojlantirishda tarixiy manbalarning roli</i>	512
98.	<i>Ismailov Shuxrat Atamurodovich</i>	<i>Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari</i>	516
99.	<i>Темиров Фаррух Умедович</i>	<i>Шарқ алломаларининг илмий-маънавий меросини ўрганиши – Янги</i>	524